

CHET TILLARINI O'QITISHDAGI MAVJUD AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Talaba: Farhodova Oltinoy Umid qizi

Xorijiy til va adabiyoti 1-fakulteti,

2214-guruh talabasi.

Ilmiy rahbar: Jo'rayev G'anisher

Bugungi kunda zamonaviy dunyoda odmlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi kundan kunga juda tez o'sib bormoqda. Chet tilini bilish orqali odamlar ko'plab davlatlarga sayohat qilib va ularning tarixi, urf-odatlari va madaniyatini o'rganib katta tajribalar orttirishmoqda. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va amalga oshirilayotgan qator islohotlar tufayli chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqish jamiyatdagi o'rnini va obro'sini yanada mustahkamlab bormoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, odatiy darajada rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatda har bitta inson o'zi yashab turgan muhitdagi har qanday tilni o'rganishga qodir va boshqalar bilan ushbu tillarda erkin muloqot qila oladi ya'ni patologik nuqsoni bo'lmagan bola ikki, uch yoki undan ortiq tillarni o'rgana oladi. Til o'rgatish juda ko'p turli xil xususiyatlarga ega. O'qituvchi nafaqat o'quvchilarga til ko'nikmalarini o'rgatishi balki ularni amalda tatbiq qila olishiga e'tibor qaratishi kerak. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilar nimani o'rganishi, bunday ta'lim ularga nima uchun zarur ekanligi va darslar kelajakda ular uchun qanday foyda keltirishini anglab yetishi kerak. Demak, til o'rgatish o'qituvchilardan talabalarni ham akademik ham shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga o'rgatishlarini talab qiladi.

Dunyoning turli mamlakatlarida bolalarga erta yoshdan chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rgatish yaxshi yo'lga qo'yilgan va bu bizning ta'lim tizimimizga mos keladi. Ammo yurtimiz O'zbekistonda ham xorijiy tillarni o'qitishda dolzarb muammolar mavjud. Xo'sh, o'qituvchilar ingliz tilini o'qitishda qanday muammolarga duch kelishadi? Birinchi muammo bu-sinfdagi buzilgan muhit. Atrof-muhit ham ta'limda, ham o'qitishda eng muhim sanaladi. Ingliz tilini

o'qitishda o'qituvchilar asosan ekologik muammolarga duch kelishadi. Sinfidagi bezovta qiluvchi muhit o'qituvchilarni chalg'itadi va tilni o'rgatishga bo'lgan ishtiyoqini tushuradi. Bunday sharoitda na o'qituvchi yaxshi ta'lim bera oladi, na o'quvchilar yaxshi o'rgana olishadi. Shuning uchun ham til o'rgatishda ijobiy va qulay o'quv muhiti bo'lishi zarur.

Ikkinchi muammo - cheklangan resurslar bo'lib, resurlarning yetarli ekanligi nafaqat chet tilini o'qitishda balki boshqa fanlarda ham katta ahamiyatga ega. Bunga biz misol qilib o'qituvchilarning oylik maoshini olsak, agar ular yetarli mablag' bilan ta'minlanmagan bo'lsa, o'qituvchilar o'ziga kerakli resurslarni ola olmaydi va natijada resurslarsiz dars berish juda qiyin bo'lib qoladi.

Uchinchi muammo bu - sinfda o'quvchilarning haddan ziyod ko'pligi. Sinfda o'quvchilarning ko'p bo'lishi o'qituvchilar uchun ko'p shovqin va stressni keltirib chiqaradi. Chunki ko'p sonli talabalarni o'qitish ko'proq kuch va energiya talab qiladi va shu sababli ham ular o'quvchilarni boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Til o'rganishda vaqt eng zarur narsadir. Masalan, maktablarda ingliz tilidan dars berish uchun vaqt juda oz. Shu sababli, o'qituvchilarm uchun qisqa vaqt ichida dars berish eng qiyin vazifalardan biridir. O'qituvchi o'z ma'ruzasini o'quvchilarga yetkazib berishga bu vaqt yetarli emas.

Yana bir muammo bu- sinfda o'quvchilarning o'z ona tilisida gapirishi bo'lib, bu ularning til o'rganishida katta ta'sir ko'rsatadi va tilni o'rganish vaqtini uzaytiradi. Ular dars davomida o'rganayotgan chet tilisida gapirishga harakat qilishmaydi va har doim o'qituvchilardan to'g'ri javobni o'qituvchilari aytishini kutishadi ya'ni o'z o'qishiga jiddiy yondashmaydi.

Yuqorida keltirilgan bir qator muammolarga yechim sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin. Birinchidan, o'quv muhitining holati yaxshi bo'lishi va hamma o'quv qurollari va jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, dars jarayonida o'qituvchi talabalardan ortiqcha diqqatni jalb qiladigan narsalarni yig'ishtirib qo'yishini va darsda faqat ingliz tilida yoki boshqa o'sha

o'rganilayotgan tilda gapirishi talab qilishi kerak. Ana shu holatdagina til o'rganishda o'sish, talaffuzda ravonlik kabi yutuqlarga erishish darajasi oshadi. Dars jarayonida ushbu qoidalar qat'iyat bilan talab qilinsa va cheklovlar yo'lga qo'yilsagina chet tilini o'zlashtirish muvaffaqiyatli amalga oshadi. Bundan tashqari, o'quvchilar sinflarga to'g'ri taqsimlanishi kerak. Kam sonli o'quvchilarni o'qitish ko'p sonli o'quvchilarni birvarakayiga o'qitishdan ko'ra ancha oson va samarali kechadi. Shu sababli hozirgi kunda ayniqsa universitetlarda talabalarning kam sonli kichik- kichik guruhlariga ajratilishi kuzatilmoqda. Bularga qo'shimcha tarzda chet tilini samarali o'qitishdagi muammolarga yechim sifatida yana boshqa bir qator yo'llarni sanab o'tishimiz mumkin. Shulardan biri, talabalarni tovush, so'zlarni to'g'ri va ravon talaffuz qilishni o'rganishi uchun turli xildagi audiomateriallardan keng foydalanishiga yo'naltirilishi kerak. Aynan faqat o'qituvchilar o'rgatsagina o'sha narsani o'qishdan tashqari mustaqil ravishda chet tilida filmlar, multfilmlar, til o'qitishga moslangan video-lavhalarni tomosha qilish ham qisman bo'lsa ham ko'prik sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, universitetlarning boshqa davlatlar bilan hamkorlikda ishlashi ham talabalar til o'rganishida katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jahonning yarmidan ko'p aholisi kundalik hayotlarida ikki va undan ortiq tilda so'zlashishini hisobga oladigan bo'lsak, chet tilini o'rganish mu'jiza emasligiga amin bo'lamiz. Buning ustiga, o'qituvchilar chet tilini talabaga faqat sanoqli odamlar o'rgana oladigan yutuq sifatida emas balki zamon bilan hamnafas bo'lib yurishi uchun o'rgatishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J.Jalolov, G.T. Mahkamova, Sh. S. Ashurov. "ENGLISH LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY".
2. Rasulova. M. I. "Challenges and Solutions in English Language Teaching to Students"
3. <https://baxtiyor.uz>.
4. <https://cyberleninka.ru>
5. Ziyatova, N., Nurmuhamedova, N., & Xakimbayeva, O. K. (2022, July). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA IBORALI QO'SHMA SO'ZLAR YASALISHIDA METONIMIYANING O'RNI. In Международная

конференция академических наук (Vol. 1, No. 24, pp. 39-42).